

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-5610500 5.02
“ _____ ” _____ 2019 yil



SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI REKTORI:
R.I. XALMURADOV
2019 yil “ _____ ” _____

**SPORT TURLARI BO‘YICHA HAKAMLIK
NAZARIYASI VA AMALIYOTI fanining**

O ‘ Q U V D A S T U R I

Bilim sohasi: 600000 – xizmatlar
Ta‘lim sohasi: 610000 – xizmat ko‘rsatish
Ta‘lim yo‘nalishi: 5610500 –sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)

SAMARQAND – 2019

FAN DASTURI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI JISMONIY
MADANIYAT FAKULTETI KENGASHIDA KO'RIB CHIQLGAN VA TAVSIYA
QILINGAN (2019 YIL "27" 03 DAVLAT DABI "10" -SONLI BAYONNOMA).

FAKULTET DEKANI:  DOTS. B.B. KIPCHAKOV

FAN DASTURI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETIDA ISHLAB CHIQLDI.

TUZUVCHI:

Sultonov R.T.

- Sam DU Jismoniy madaniyat fakulteti, Sport pedagogik mahoratini oshirish kafedra o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

Eshnazarov J.E.

- Sam DU Jismoniy madaniyat fakulteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika kafedra professori

Berdiqulov B.D.

- Tayloq ixtisoslashtirilgan Olimpia zahiralari maktab internat direktori pedagogika fanlari nomzodi

FANNING DASTURI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI O'QUV-
USLUBIY KENGASHINING 2019 YIL "03" 07 DABI "10" -SONLI
MAJLIS BAYONI BILAN MA'QULLANGAN.

O'QUV USLUBIY KENGASH RAISI:



PROF. A.S. SOLEEV

Kirish

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligi zamon talablariga mos ravishda tayyorlangan o'quv adabiyotlari, mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan ilg'or innovatsion texnologiyalar va ilmiy asoslangan rejalashtiruv hujjatlariga bog'liqdir. Aynan ana shu o'ta muhim va dolzarb masalalarga Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev alohida ahamiyat berib kelmoqda.

Har bir soha bo'yicha chop etilayotgan har bir o'quv adabiyoti muayyan fan dasturiga asoslanishi zarur.

Ushbu dastur umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining jismoniy tarbiya darslarida o'qitiladigan sport turlari gimnastika, yengil atletika, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari va milliy kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish, ularni tashkil qilish va o'tkazish metodlari, sport turlarining rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berish, talabalarni sport turlarida hakamlik qilish tartiblari, qoidalari bilan tanishtirish, ularni sport turlari bo'yicha hakamlik qilishga oid amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning maqsadi va vazifalari.

Fanni o'qitishdan maqsad: talabalarda «Sport turlari bo'yicha hakamlik nazariyasi va amaliyoti» fani bo'yicha gimnastika, yengil atletika, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari va milliy kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish, musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish metodlari, talabalarni sport turlarida hakamlik qilish tartiblari, qoidalari bilan nazariy va amaliy tanishtirish, ularni sport turlari va musobaqalar o'tkazish, hakamlik qilishga oid amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning vazifasi: - talabalarda «Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish» fanining ma'ruza, seminarlarda bo'lajak mutaxassislariga gimnastika, yengil atletika turlari musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish, harakatli o'yinlar bo'yicha quvnoq startlar musobaqasi, sport o'yinlaridan futbol, voleybol, basketbol va qo'l to'pi turli usullarda musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish jarayonida hakamlik qilish qoidalari va tartiblarini mustahkam o'rgatish, sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun atroflicha bilim berish. Sport turlari bo'yicha hakamlik qilish malakalarini shakllantirish, musobaqalar o'tkazish usullarini va nizomlarini tuzishga o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar.

«Sport turlari bo'yicha hakamlik nazariyasi va amaliyoti» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o'rni va ahamiyatini bilishi.

- maktabgacha ta'limda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida o'tkaziladigan sport turlari va ularni mazmunini bilishi;

- gimnastika, yengil atletika, harakatli va sport o'yinlarini (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi), milliy kurashning kelib chiqishi, qisqacha tarixi, turkumlari, rivojlanish bosqichlari, pedagogik ahamiyatini bilishi;

- gimnastika, yengil atletika, harakatli va sport o'yinlarini (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi), milliy kurashning umumiy tushunchasi va hakamlilik qilish qoidalarini aniqlash;

- gimnastika, yengil atletika, harakatli va sport o'yinlarini (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi), milliy kurash musobaqalari va o'yin qoidalarini tahlil qilish.

- gimnastika, yengil atletika, harakatli va sport o'yinlarini (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi), milliy kurash musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazishni bilishi;

- O'zbekistonda bu sport turlarining bugungi kundagi ahvoli haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- sport musobaqalarini o'tkazish usullarini bilishi;

- hakamlilik qilish haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- musobaqalarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Ko'nikma - talabalar «sport turlari bo'yicha hakamlilik nazariyasi va amaliyoti» fanidan gimnastika va yengil atletika mashqlarining harakatlar texnikasini bilishi, harakatli o'yinlarni o'tkazilishini nazorat qila olishi, jismoniy mashqlar hatti harakatlarini bajarishni hamda yurish, yugurish harakatlarini harakatli o'yinlar orqali o'rgatish, sport turlari futbol, voleybol, basketbol va qo'l to'pi o'yinlarini texnikasi va taktikasini o'rgatish, harakatlanish va to'pni boshqarish texnikasini to'g'ri bajarish, milliy kurash musobaqalarini tashkil qilish, shuningdek o'tkazish bo'yicha mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazish hamda hakamlilik qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

Malaka – gimnastika, yengil atletik, sport va harakatli o'yinlar, milliy kurash musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish malakalari, mashg'ulotlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish usullari, harakatli o'yinni tanlash va tashkil etish malakalari, gimnastika, yengil atletika, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi) milliy kurash bo'yicha mashg'ulotlar jarayoniga rahbarlik qilish malakalariga, gimnastika, yengil atletik, sport va harakatli o'yinlar, milliy kurash musobaqalarini, sport va harakatli o'yinlarni hamda milliy kurashda yuklamani boshqarish malakasiga, gimnastika, yengil atletika mashqlarining harakatlar texnikasini o'rgatish malakalariga, sport o'yinlarini texnikasi va taktikasi bo'yicha nazariy va amaliy harakat malakalariga ega bo'lishi, ushbu sport turlarida hakamlilik qilish hamda ularni avtomatizim shakliga keltirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

«Sport turlari bo'yicha hakamlilik nazariyasi va amaliyoti»fani asosiy ixtisoslik fan hisoblanib 5-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida berilgan umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, sport tibbiyoti-DJM va JT gigiyenasi, jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi, gimnastika va uni o'qitish metodikasi, yengil atletika va uni o'qitish metodikasi, sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi, jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish, suzish va uni o'qitish metodikasi, sport psixologiyasi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda sport turlari kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlikni talab etadi

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi innovasion – pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan va sport jihozlaridan foydalaniladi.

Ma'ruza, seminar va amaliy darslariga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

"Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish" fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni fa'ollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini fa'ollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilishni o'rgatish hamda o'zlashtirishda muammoli ta'lim, yangi pedagogik texnologiyasidan (klaster, gambur, yechim daraxti) ko'rgazmali qurollardan, zamonaviy texnika vositalaridan, video kasetalardan foydalanish va amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Asosiy qism:

Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda jismoniy madaniyat va sportda, hususan "Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish" fanining so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol va qo'l to'pi) bo'yicha hakamlik qilish.

Sport turlarini (futbol, voleybol, basketbol va qo'l to'pi) o'yin qoidalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Maydon va jihozlarni o'lchamlari mustahkam o'rgatish, sport o'yinlarining harakat texnikalarini bilishi, harakatlardagi xatoliklarni aniqlay olish, hakamlik qilish qoidalari va vazifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Musobaqalarni o'tkazish uchun sport turlaridan musobaqa nizomini tuzish o'rgatish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Gimnastika va yengil atletika sport turlari bo'yicha hakamlik qilish

Gimnastika turlari bo'yicha musobaqalarda hakamlik qilish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Gimnastikada hakamlarning vazifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Gimnastika turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika turlari bo'yicha musobaqalarda hakamlik qilish bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Yengil atletika sport turida hakamlarning vazifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Yengil atletika turlari yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'p kurash bo'yicha musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Yengil atletika turlari bo'yicha musobaqalarda hakamlik qilish bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Yengil atletika sport turida hakamlarning vazifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Yengil atletika turlari yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko'p kurash bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Milliy kurash turlari bo'yicha hakamlik qilish.

Milliy kurash gilam o'lchamlari, hozirgi vaqtdagi gilam va jihoz o'lchamlari, turlari va qonun qoidalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Milliy kurash turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish va hakamlik qilish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Milliy kurashda hakamlarning vazifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Milliy kurashda vazn toifalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Musobaqa nizomini tuzish bo'yicha ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Seminar mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar gimnastika, yengil atletika, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi) milliy kurash musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish malakalarini oshirish hamda hakamlik qilish qoidalari bo'yicha nazariy bilim, ko'nikma hamda malakalarga ega ekanliklari aniqlanadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza mashg'ulotlaridagi mavzular bo'yicha berilgan ma'lumotlarni qay darajada o'zlashtirganligi aniqlanadi, baholanadi hamda ularni bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol va qo'l to'pi) bo'yicha musobaqalarni o'tkazish usullari va hakamlik qilish bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash, o'yin qoidalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. Maydon va jihozlarni o'lchamlari mustahkam o'rgatish, sport o'yinlarining harakat texnikalarini bilishi, harakatlardagi xatoliklarni aniqlay olish, hakamlik qilish qoidalari va vazifalari, hakamlarning imo-ishoralari haqida tushunchalari

haqida nazariy ma'lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholash.

Gimnastika va yengil atletika sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etish va unga hakamlik qilish bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash, talabalarning gimnastika va yengil atletika sport turlari haqida, shu sport turlaridan musobaqalarni tashkil etishi va hakamlik qilish bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholash.

Musobaqalarni o'tkazish uchun sport turlaridan musobaqa nizomini tuzish o'rgatish haqida nazariy ma'lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholash.

Milliy kurash turlari bo'yicha musobaqalar tashkil qilish va hakamlik qilish bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash, talabalarning milliy kurash turlari haqida, musobaqalarni tashkil etishi va hakamlik qilish. Maydon o'chamlari, hakamlar soni, hakam imo-ishoralari, sportchilarni necta vazn bo'icha musobaqalarda ishtiroki bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gamburgar, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

“Sport turlari bo'yicha hakamlik nazariyasi va amalyoti” fani bo'yicha tavsiya etiladigan tematik mavzular

1. Futbol o'yinida hakamlik qilishni o'rgatish
2. Voleybol o'yinida hakamlik qilishni o'rgatish
3. Basketbol o'yinida hakamlik qilishni o'rgatish
4. Qo'l to'pi o'yinida hakamlik qilishni o'rgatish
5. Gimnastika musobaqalarida hakamlik qilishni o'rgatish
6. Yengil atletika musobaqalarida hakamlik qilishni o'rgatish
7. Kurash musobaqalarida hakamlik qilishni o'rgatish
8. Musobaqalarni tashkil qilishni o'rgatish

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari

- 1.Futbol o'yin qoidalarining rivojlanish tarixi
- 2.Futbol o'yinida hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 3.Futbol musobaqalarida hakamlar qo'llaydigan imo-
ishoralarining tavsifi
- 4.Voleybol o'yin qoidalarining rivojlanish tarixi
- 5.Voleybol o'yinida hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 6.Voleybol musobaqalarida hakamlar qo'llaydigan imo-
ishoralarining tavsifi
- 7.Basketbol o'yin qoidalarining rivojlanish tarixi
- 8.Basketbol o'yinida hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 9.Basketbol musobaqalarida hakamlar qo'llaydigan imo-
ishoralarining tavsifi
- 10.Qo'l to'pi o'yin qoidalarining rivojlanish tarixi
- 11.Qo'l to'pi o'yinida hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 12.Qo'l to'pi musobaqalarida hakamlar qo'llaydigan imo-
ishoralarining tavsifi
- 13.Gimnastika qoidalarining rivojlanish tarixi
- 14.Gimnastikada hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 15.Yengil atletika qoidalarining rivojlanish tarixi
- 16.Yengil atletikada hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 17.Kurash qoidalarining rivojlanish tarixi
- 18.Kurashda hakamlar vazifalarining ahamiyati
- 19.Kurash musobaqalarida hakamlar qo'llaydigan imo-
ishoralarining tavsifi
- 20.Musobaqalarni o'tkazish uchun sport turlaridan musobaqa
nizomlarini tuzish

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- yiqilish va yiqitish usullari chizmasini chizish va mashq variantlarini ishlab chiqish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- mashq davomida ishlatiladigan sport anjomlarini o'rganish;
- talabaning o'quv – ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish

va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti.

«sport turlari bo'yicha hakamlilik nazariyasi va amaliyoti» o'rgatish hamda o'zlashtirishda yangi pedagogik texnologiyasidan (klaster, gamburgar, yechim daraxti) zamonaviy texnika vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan, video kasetalardan ko'rsatish va boshqalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. A.A.Po'latov, F.V.G'aniyeva, B.M Mirdaliyev, D.T.Husanova "Basketbol nazariyasi va uslubiyati" Darslik T.:2017.-410b
2. O.V.Gancharova "Voleybol" O'quv uslubiy qo'llanma. T.:2017.-150b
3. F.Kiremov, N.A.Tastanov, E.N.Kodirov "Yunon -rum kurashi" O'quv uslubiy qo'llanma. T.:2017.-135b
4. SH.X.Isroilov, Z.R.Nurimov, SH.U.Abidov, S.R.Dovletshorotov, A.A.Karimov "Sport va harakatli o'yinlar (Futbol)" Darslik T.:2015.-387b.
5. T.S.Usmonxo'jayev, B.B.Kinchakov, N.B.Hatamov "Basketbol" O'quv qo'llanma. T.:2017.-230b
6. A.A.Po'latov, A.A.Immatov, F A.Po'latov "Voleybol" O'quv uslubiy qo'llanma. T.:2017.-90b
7. M.SH.Abdullayev, M.S.Olimov, N.T.To'xtaboyev "Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi" Darslik T.:2017.-560b
8. T.S.Usmonxo'jayev, A.A.Po'latov, S.S.Toshiboyev, F A.Po'latov "Sport va harakatli o'yinlar" Darslik T.:2018.-466b
9. SH.K.Pavlov, O.H.Abdujalilov, Z.Yu.Yusupova "Gandbol nazariyasi va uslubiyati" Darslik T.:2017.-359b
10. I.To'raqulov, SH.Adilov, Z.Nurimov "Sport va milliy o'yinlar" Darslik T.:2015.-350b
11. O.Toshmurodov "Milliy kurashning nazariy asoslari" O'quv uslubiy qo'llanma. Sam.:2017.-110b

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent "O'zbekiston" NMIU, 2017-yil 48b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy -iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar-Toshkent "O'zbekiston", 2017.-104b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali

marosimdagi ma'ruza 2016-yil 7-dekabr. Toshkent "O'zbekiston" NMIU, 2017-yil 48b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent "O'zbekiston" NMIU, 2016-yil 56b.

Internet saytlari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. **www.lex.uz**
5. **www.bilim.uz**
6. **www.gov.uz**